

TURLI MATERIALLARDAN DEKORATIV BUYUMLAR YASASH TEXNOLOGIYASI

O’ralova Roziya Abdulkarim qizi

TIFT Universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida o’qituvchisi,

Toshkent shahri, O’zbekiston

e-mail:roziyaoralova8@gmail.com

O’quvchilar shaxsining kasbiy bilim olishdagi yo’nalishni ixtiyoriy tanlashi uchun sharoit yaratishda, avvalo, uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish muammosi hal etilishi lozimdir. “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda maktab ta’limini rivojlantirish yuzasidan belgilab berilgan vazifalar bu sohani davr talablari asosida takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quv jarayonini integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda amal qilayotgan ta’lim tizimi xususiyatlarini o’rganish va bu sohada erishilgan yutuqlarni tahlil qilish natijalari umumiy orta talim mazmunining ijtimoiy buyurtma asosida belgilanishi, jamiyat hayotining har tomonlama taraqqiy etishi uchun poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Amaliy-dekorativ san’ati jonli tabiat bilan chambarchas bog’liqdir. Tabiatdagi muxit insonni go’zallik qonuniyatlari asosida yashashga, xayotdagi rang-barang xolatlarni ko’ra bilishga o’rgatish kerak. Texnologiya darslarida o’tiladigan mavzularning aksariyati amaliy mashg’ulot bilan bog’liq. Atrof-muxitning tuzilishi, jonli va jonsiz tabiatning uyg’unligidan ilxomlanib, o’quvchi yasalgan buyumiga bezak beradi.

Dekorativ amaliy san’at keng miqyosda rivojlanayotgan san’atimizning xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san’atiga estetik munosabati yaqqol namoyon bo’ladi. Xalq amaliy san’atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, arxetektura, raqs va musiqa bilan hamohangdir.

Dekorativ san’atning o’ziga xos estetik jihatlarini tushunish uchun uning mavzusi, mazmuni, asardagi tiplar badiiy texnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o’ymakorligi monumental stanokli, turli xalqlarning milliy kiyimlari, so’zanalari, taqinchoqlari va istirohat bog’lari san’ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda jihozlardagi o’ymakorlik va xokozolardir. Shakllari bir-biriga o’xshagan bu asarlarning o’zaro biriktirib turgan jixati ularning asosiy vazifasi funksiyasi insonni qurshab turgan muhitni nafasat

vositasida bezashdan iboratligidir. Dekorativ san’atda turg’unlik etakchi o’rinlardan birini egallaydi. To’g’ri to’rtburchak, oval va aylana shakllaridagi kandakorlik, o’ymakorlik va naqqoshlik buyumlari, shuningdek, badiiy bezash buyumlari

Ko’p hollarda turg’unlikka ega bo’ladi.

Texnologiya darslarida badiiy bezashning dekorativ amaliy san’at turlaridan naqqoshlik ko’proq uchraydi. Naqqoshlik ishida yetakchilik rolini o’ynovchi mustaqil vazifaga ega emas, u faqat badiiy bezash ishlarining badiiy sifatini boyitadigan omil bo’lib xizmat qilishi lozim. Unda ishtirok etadigan elementar tabiat ne’matlari (paxta, barg, gul, g’uncha, anor, bodom, nok, olma, lola, kurtak va xokozolar)ning formasidir. Dekorativ-amaliy san’at hisoblanadigan shunday zamonaviy turlari ham mavjud. Misol uchun materiallarga badiiy ishlov berish, payvandlash, bukish, chekanka qilish, qirqish, bo’yash va laklash orqali ulardan turli buyumlar, ya’ni gullarga taglik va derazalarga panjara to’siq, yoritgich va boshqa bezaklar yasash mumkin.

O’quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda applikasiya ishlari katta yordam beradi. Applikasiya - badiiy asarlarni yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bunda tasvirning asosi sakllanadi. Bu applikasiyadan fakat bezash maksadidagina ko’rgazmali qurollar turli o’yinlar uchun qo’llanmalar o’yinchoqlar bayroqlar suvinerlar devoriy gazetalar stendlar ko’rgazmalar va kastyumlarni tayyorlash emas balki kartina pano naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo’llash imkonini beradi.

Dekorativ applikasiya - u naqsh gullaridan tashkil topib alohida-alohida tasvirlar shox qo’ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilardan tarkib topuvchi predmetli xodisa xarakterlar uyg’unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo’lishi mumkin.

Applikasiya bilan shug’ullanish o’quvchilarni garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikasiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlikni diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, rangni sezishni o’stiradi.

Har bir mashg’ulotga o’quvchilar oldindan tayyorgarlik ko’rishadi. Har bir mashg’ulot oxirida o’quvchilar keyingi mashg’ulotda kerak bo’ladigan narsalarni yozib oladilar. O’quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo’lishlari o’z ishlarini rejalashtira bilishlari materialni tejamkorlik bilan sarflashlari vaqtidan to’g’ri foydalanishlari va ish joyini toza saqlashlari kerak. Barcha ish turlarini ish daftarining o’ng varag’iga bajarish tavsiya etiladi. Yelim bilan ishlash texnikasiga rioya qilish lozim.

Applikatsiya ishida asosiy material qog‘ozdir. Dazmollangan va kraxmallangan gazmol bo‘laklaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir katorda somon, quritilgan o‘simlik urug‘ va tabiiy materiallardan xam foydalaniladi. Dekorativ applikatsiya uzining ornamentiligi shaklining umumlashganligi rangi bilan ajralib turuvchi tasvirlardir. Texnologiya darslarida 1-4-sinflarda asosan qog‘ozdan qilinadigan dekorativ applikatsiya keng qo‘llaniladi. Applikatsiyaning bu turi bilan tabrik telegramalar, taklifnomalar bezatiladi.

Applikatsiya yasashda turli materiallardan foydalanish

 <p>Qog‘ozdan</p>	 <p>Gazlamadan</p>
 <p>Urug‘lardan</p>	 <p>Barglardan</p>


Applikatsiya usulida tabriknomani bezash.


1-4-sinflarda o‘qitiladigan mavzularni amaliy mashg‘ulot jarayonida dekoratsiya ishlarini amalga oshirish jarayonlaridan misollar keltiramiz.

Masalan, 2-3-sinflarda kviling dekokativ-amaliy san’atining dastlabki bosqichlari o‘rgatiladi. O‘quvchiga o‘qituvchi ishni borish tartibi bilan har xil metod, ko‘rgazmali qurollar orqali tanishtirib bo‘lgach, xavfsizlik texnikasi qoidalarini ham eslatib o‘tadi. Amaliy olgan bilimlarini mustaqil ijod qilishlariga sharoit yaratib beradi. O‘qituvchining ko‘rsatmasiga tayanib, o‘quvchi mustaqil fikrlaydi. Buyum yasashga hosil bo‘lgan moslashuvi natijasida yangi dekoratsiya ishlarini amalga oshiradi.

Kviling yordamida tabriknomani bezash.




Shardan archa o‘yinchoqlarini yasash.



Yuqori sinflarda esa, barcha yo‘nalishlarda mavzularni o‘rgatilishida buyumni bezash usullaridan foydalanish mumkin.

Kashta usulida naqsh orqali



Zardo‘zi usulida naqsh orqali



Quroq usulida naqsh orqali



Applikatsiya usulida naqsh orqali



Texnologiya va dizayn yo‘nalishida dekorativ buyumlarni yasash





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q.M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. – T.: “Yozuvchilar uyushmasi”, 2006.
2. Abdullayeva Q.M. Tikuvchilik buyumlari asos konstruksiyasini chizish bosqichlari //J. Pedagogik ta’lim. – T.: 2003.-№1. 35-39 b.
3. Abdullayeva Q.M., Majidova D. Liboslar davr ruhini ifodalaydi. // J. Pedagogik mahorat. –T.: 2003. -№1. 92-93 b.
4. Aleksandrova G.N. 100 modeley jenskix yubok. – Minsk: «Рольмута», 1992.
5. Hasanbayeva G.K. “Kiyim modelini ishlash va loyihalashsini tayyorlash”. – T.: “O’qituvchi”, 1990.
6. Mirboboyev V.A. Konstruksion materiallar texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016.-236 b.
7. Tohirov O’.O. Texnologiya fanini o’qitish metodikasi. // O’quv moduli bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.-260 b.